

**2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da  
amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to'g'risida**

**TAHLILY MA'LUMOT**

*2024 yil 10 yanvar holatiga*

№	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul vazirlik va idoralar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyihalar <i>(kimga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)</i>
<b>Davlat dasturida Ichki ishlar vazirligi tomonidan bevosita ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar</b>							
1.	Fuqarolarning harakatlanish erkinligi bilan bog'liq <b>huquqlarini cheklashda qonuniylikni ta'minlash</b> ustidan nazoratni kuchaytirish. <b><u>(Dasturning 31-bandi.)</u></b>	Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olish bo'yicha yagona elektron reestmi shakllantirish, yuritish va undagi ma'lumotlardan foydalanish tartibini quyidagilarni nazarda tutgan holda belgilash: vakolatli organlar tomonidan Yagona elektron reestmi shakllantirish, yuritish va undagi ma'lumotlardan foydalanish, jumladan tegishli ma'lumotlarni harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning qarindoshlari yoki advokatlariga taqdim etish tartibi; Yagona elektron reestmi qonunchilikda belgilangan talablar va shartlarda ishlab chiqish, takomillashtirish va keyinchalik texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha buyurtmachi hamda axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha vakolatli organi belgilash; Yagona elektron reestmi ishlab chiqish va shakllantirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish tartibi; Mas'ul vazirlik va idoralarning xodimlarini yangi tartibning mazmun-mohiyati va harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar bilan ishlash masalalari bo'yicha o'qitish belgilangan.	<b>Vazirlar Mahkamasi qarori</b>	2023 yil may	Hisob-kitoblarga asosan	<b>Ichki ishlar vazirligi</b> <i>(P.Bobojonov),</i> Bosh prokuratura <i>(N.Yo'ldoshev)</i> Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(A.Inoyatov)</i> Davlat xavfsizligi xizmati <i>(A.Azizov)</i> Adliya vazirligi <i>(A.Tashqulov)</i>	<b>To'liq bajarildi.</b> Mazkur bandeda belgilangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olishning yagona elektron reestrini joriy etish to'g'risida" 2023 yil 31 avgust kuni 431-son qarori qabul qilindi.
2.	Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish. <b><u>(Dasturning 32-bandi.)</u></b>	Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida yagona boshqaruv tizimini yaratish; Hududiy tergov bo'linmalari xodimlarini ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rag'batlantirish tartibini takomillashtirish; Jinoyatlarni tergov qilish jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.	<b>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.</b>	2023 yil avgust	Hisob-kitoblarga asosan	<b>Ichki ishlar vazirligi</b> <i>(P.Bobojonov),</i> Bosh prokuratura <i>(N.Yo'ldoshev)</i> Adliya vazirligi <i>(A.Tashqulov)</i>	<b>Bajarildi.</b> Mazkur band ijrosini ta'minlash maqsadida hozirda Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentida malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruh tuzilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi ishlab chiqilib, taalluqli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda 2023 yil 29 iyul kuni 1G'1232-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga ko'rib chiqish uchun kiritilgan. <b>(ID-78208).</b> Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023 yil 28 avgustdagi 12/78208G'1-410-son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilgan.
3.	Transport vositasida yo'l-harakati qoidalarini buzganlik holatlarini aniqlash tartibini takomillashtirish. <b><u>(Dasturning 33-bandi.)</u></b>	Transport vositasi mulkdorining transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan birgalikdagi murojaatiga ko'ra vakolatli organ tomonidan huquqbuzarliklarni qayd etish tizimiga tegishli o'zgartirishlar kiritish hamda	<b>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.</b>	2023 yil noyabr	Hisob-kitoblarga asosan	<b>Ichki ishlar vazirligi</b> <i>(P.Bobojonov),</i> Oliy sud <i>(B.Islamov)</i>	<b>Bajarildi.</b> Mazkur bandeda belgilangan vazifa ijrosini samarali tashkillashtirish uchun Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan quyidagi loyihalar

№	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul vazirlik va idoralar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyihalar (kimga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
		ushbu transport vositasida sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi uchun boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxsга nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirish tartibini joriy etish.				Adliya vazirligi (A.Tashqulov)	ishlab chiqildi: “O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yuridik shaxslarga tegishli transport vositasidan foydalanib sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganlik uchun javobgarlikni belgilash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqildi. <b>(ID-84229)</b> Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023 yil 16 noyabrda 12/84229/1-2139-son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilgan. Vazirlar Mahkamasining “Avtomototransport vositasining mulkdorlariga transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan birgalikda tegishli huquqni belgilovchi hujjatni taqdim etgan holda, davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarini transport vositasini boshqarish huquqini o'tkazganligi haqida xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. <b>(ID-84228)</b> Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023 yil 15 noyabrda 12/84228/1-2139-son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasiga kiritilgan.
4.	Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini <b>“shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun”</b> g'oyasi asosida isloh qilish. <b><u>(Dasturning 34-bandi.)</u></b>	Nukus va Toshkent shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlar markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligini soatiga 70 kilometrdan 60 kilometr gacha tushirish.	<b>Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.</b>	2023 yil mart	Hisob-kitoblarga asosan	<b>Ichki ishlar vazirligi</b> (P.Bobojonov), manfaatdor vazirlik va idoralar	<b>To'liq bajarildi.</b> Mazkur bandeda belgilangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo'l harakati qoidalari avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish kiritish to'g'risida” 2023 yil 3 aprel kuni 140-son qarori qabul qilindi.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Ichki ishlar vazirligi**